



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 10 2024-YIL 25-NOYABR

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDA “TIBBIYOT XODIMLARI KUNI” NISHONLANDI



Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida “Tibbiyot xodimlari kuni” hamda “Talabalik qasamyodi – 2024” tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov, Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Shuxrat Boymuradov va Toshkent tibbiyot akademiyasining pedagog jamoasi ishtirok etdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi mamlakatimizdagi tibbiyot institutlari uchun tayanch tibbiyot oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda doimo faol oliygoh bo'lib kelmoqda.

– Mamlakatimizda aholiga jahon andozalari darajasida, yuqori tibbiy texnologiyalar vositasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan tortib, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat

ko'rsatishgacha bo'lgan bo'g'inni qamrab oluvchi mukammal tizim tufayli aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi uzaydi, – deydi Sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov. – Bu ushbu soha vakillarining mehnati yurtimizda yuksak qadrlanayotganiga yorqin misol bo'la oladi. O'zlarining mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflilari bilan xalqimiz koriga, salomatligi yo'lida jon chekib qilayotgan mehnatlari bundan-da yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lsin.

Tadbirda o'quv yili davomida Akademiya hayotida muhim voqealarga boy bo'lganini alohida ta'kidlandi. Shuningdek, akademiyaning 19 ta ta'lim dasturlari Jahon tibbiy ta'lim federatsiyasining Mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligi ekspertlari tomonidan eng kuchli sifatleri e'tirof etilib, xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgani aytib o'tildi.

– Yurtimizdagi barcha tibbiyot xodimlarini va sizlarni kasb bayramingiz –“Tibbiyot xodimlari kuni” bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etaman, – deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Shuxrat Boymuradov. – Ilmiy, ijodiy, o'qishdagi faoliyatingiz va intilishlaringizda muvaffaqiyatlar, oilangizga totuvlik, o'zingizga mustahkam sog'liq, xonadoningizga fayzi baraka tilayman. Bor bilim va tajribangiz, qalb qo'ri va ko'z nuringizni barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun baxshida etib kelayotganingiz, uchun minnatdorchilik bildirib, sharaflilari va mas'uliyatli faoliyatingizga kuch-g'ayrat, yutuq va omadlar tilayman.

Tadbir yakunida Toshkent tibbiyot akademiyasi pedagog jamoasining bir guruhi “Tibbiyot xodimlari kuni” bayrami munosabati bilan taqdirlandi.

Gulchehra MIRZAYEVA,
TTA Matbuot kotibi



*Zakovatli uqadi, bilimli biladi, bilimli,
zakovatli tilakka yetadi.*

Yusuf Xos Hojib



8 – dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun!

QOMUSIMIZ ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ KAFOLATI



Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasidir.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonunidir. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimda davridayoq ma'lum bo'lgan. Rim konstitutsiyasi asosan pretsedent orqali o'tadigan kodlanmagan ko'rsatmalar va prinsiplardan iborat bo'lgan. Rim konstitutsiyasi rasmiy yoki hatto rasmiy bo'lmagan, asosan yozilmagan va doimo rivojlanib borgan. Shuningdek, Amir Temur “Temur tuzuklari” Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya haqida so'z borar ekan, biz avvalo uni mustaqilligimizning eng katta yutug'i, uning bardavomligi timsoli sifatida ko'ramiz. Konstitutsiya kodeks emas, huquqiy hujjat emas, balki mamlakatimizning Bosh Qomusidir. U shunchaki asar emas. Unda nafaqat insonlar, jamiyat va xalq manfaatlarini, balki tabiat, atrof-muhit muhofazasi ham mujassam. Konstitutsiya o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizning inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan mustaqil va suveren davlatga aylanishida asosiy dasturulamal bo'lib keldi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki,

Konstitutsiya qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodni ularga hurmat ruhida tarbiyalash inson manfaati, huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, hayotimizning erkin va obod, turmushimizning yanada farovon bo'lishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqimizning tinch, osoyishta va farovon hayotini ta'minlash hamda O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam huquqiy asos bo'lib kelmoqda.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, ko'plab mamlakatlarda Konstitutsiya ekspert hamda tajribali mutaxassislar, olimlar va deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, parlament tomonidan tasdiqlanadi. To'g'ri ekspert va mutaxassislar o'z sohasining ustalari, har tomonlama chuqur bilim va amaliy tajribalarga ega bo'ladi. Ammo xalq manfaatlarini, xalq irodasini aks ettiradigan bunday hujjat insonparvarlik, xalqchilik g'oyalari bilan boyitilgan, xalq dardi va ruhiyatini o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim. Davlat xalq deganidir. Xalq bo'lmasa davlat ham mavjud bo'la olmaydi. Demak, Konstitutsiyadan tortib davlatning barcha normativ hujjatlarigacha xalq manfaatlarini ifoda etishi kerak. Bugungi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqaro demokratik prinsiplarga mostligi, barcha soha o'z ifodasini topgani bilan mamlakatimiz fuqarolarining huquq va manfaatlarini ta'minlab kelmoqda. Bu mamlakatda inson manfaatlarini ulug'langanidan dalolatdir. Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlarini ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan yorqin namunasini desak mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiya – baxtimiz kafolati, hayotimizning muhim mezonini hisoblanadi.

Shuni ishonch bilan ta'kidlash joizki, Bosh qonunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi muhim siyosiy, huquqiy hujjat sifatida jahonda yangi, suveren, istiqboli porloq davlat dunyoga kelganining o'ziga xos shahodatnomasi bo'ldi. O'zbekistonning Bosh qomusi mamlakatni dunyoning ilg'or demokratik tamoyillar va fuqarolik jamiyati rivojlangan yetakchi davlatlari qatoridan joy olishiga xizmat qiluvchi muhim huquqiy poydevordir. Konstitutsiya belgilab bergan tamoyillar asosida tobora rivojlanib borayotgan mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rniga ega.

Asosiy qonunimiz yaratilishining murakkab va ayni chog'da sharaflari solnomasiga nazar solar ekanimiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Shu boisdan, o'tgan davr ichida mamlakatimizdagi tub islohot va o'zgarishlarning barchasi Bosh qomusimiz asosida amalga oshirilmog'da.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo'lgan samarali va barqaror tizim shakllanmog'da. Asosiy qonunimizda ham buyuk ne'matlar orasida eng ulug'i – “inson uchun” degan g'oya ilgari surilib, uni ulug'lash, uni ulug'lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o'z aksini topgan.

Binobarin, inson manfaatlarini ustuvor bo'lgan yurtdagina yuksalish bo'ladi, bunday davlat fuqarosi har tomonlama barkamol bo'lib, Vatan uchun, xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo'ladi. Eng muhimi, inson huquqlari ta'minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo'ladi, ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar sur'atlari jadallashadi.

(Davomi 3-betda)



*Bilim bilan saodat yo'li ochiladi,
shunga ko'ra, ilmi bo'l, baxt yo'lini izla.*

Ahmad Yugnakiy



18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun



DAVLAT BAYROG'I – MILLAT G'URURI

1991-yil 18-noyabr kuni mamlakatimizda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan. Unda davlat bayrog'i mamlakatimizning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi ramz ekanligi ta'kidlangan.

Bayrog'imiz o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni mujassam etgan. Milliy bayrog'imizning davlat idora va muassasalari, o'quv yurtlari, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixonalar va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turishi, turli bayram va tantanalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi. Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g'alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizni his qilamiz.

O'zbekiston Davlat bayrog'idagi har bir rang va belgi chuqur ma'noga ega. Moviy rang – musaffo osmon va suv ramzidir, oq rang – tinchlik va poklik ramzidir, yashil rang – yangilanish va yoshlikni anglatadi, O'zbekistonning betakror tabiatini aks ettiradi, qizil chiziqlar – tomirlarimizda oqayotgan qon, erkinlikni sevuvchi ajdodlarimizni eslatadi, hayotiy kuch va abadiylik ramzidir.

Yarim oy mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, shu bilan birga – O'zbekiston tarixida boshlangan yangi davrni anglatadi. 12 yulduz – tiniq, bulutsiz osmon, mukammallik, donolikning 12 fazilati ramzi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalarining xorijiy davlatlarga rasmiy tashriflari chog'ida, mamlakatimizning chet eldagi elchixonalar va xalqaro tashkilotlarda vakolatxonalariga kiraverishda, xalqaro forumlar va anjumanlarda, sport musobaqalarida hilpirab turadi. Ushbu muqaddas ramz

O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik timsoli sifatida g'urur bilan davlat muassasalari, turar joylar, korxonalar va tashkilotlar, o'quv muassasalari binolarida hilpirab turadi.

Tarixiy qadriyatlar asosida yaratilgan va o'tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzi bo'lgan davlatimiz bayrog'ida biz ona suti, uning beshik kuylari va buyuk ajdodlar ta'limoti bilan singdirgan ulkan milliy kuch, yuksak aql va iroda mavjud.

Davlat ramzlari har bir mamlakatning mustaqilligini ifodalovchi muqaddas belgidir. Respublikamiz davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, tinch va osoyishta, ozod va erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimiz ifodasidir.

Respublikamiz davlat bayrog'idagi ramzlar O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni hamda yurtimiz hududida yashovchi millat va elatlarning an'alarini o'zida mujassamlashtirgan.

Bayroqdagi moviy rang – uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin holda ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obi hayot ramzidir. Bayroqdagi oq rang – davlatimiz fuqarolarining o'zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotganining timsoli. Yashil rang esa tabiatning yangilanishi hamda yurtimizning jannatmonand ekanligi ramzidir. Bu rang ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodmonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar davlatimiz farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo'lida o'zaro hamjihatlik bilan hormay-tolmay mehnat qilayotgan yurt farzandlarining vujudida oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

Davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug' sanaladi. Chunki u xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir.

Nozima MIRAZIMOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
2-davolash fakulteti 102-guruh talabasi

(Davomi. Boshi 2-betda)

QOMUSIMIZ ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ KAFOLATI

Bugun hayotning o'zi davr talablariga javob bermaydigan qonun hujjatlarini bekor qilib, qonunchilik bazasini ixchamlashtirish, Konstitutsiya va qonunlarimizni yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bu vazifalarni bajarishda albatta, siyosiy partiyalar va uning parlamentdagi fraksiyalari yanada faol, tashabbuskor bo'lishi lozim. Zero, huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatining "o'zi ham, so'zi ham, ko'zi ham qonun bo'lishi kerak".

Mamlakatimizda tinchlik-osoysishtalik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash eng asosiy masala hisoblanadi. Davlatimiz rahbari bu masalalarga yanada kuchli e'tibor qaratish zarurligini qayd etar ekan, "Qonun – ustuvor, jinoyatga – jazo muqarrar" degan konstitutsiyaviy tamoyilni amalda ta'minlash uchun huquq-tartibot idoralarning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilishini qayd etdi. Chunki qonun ustuvorligi bo'lmagan joyda adolat ham bo'lmasligi hammaga yaxshi ayon. Adolat ustuvor bo'lgan joyda esa farovonlik hukm suradi, xalqning orzu-istaklari ro'yobga chiqadi.

Konstitutsiyaviy tuzum, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarni tubdan rivojlantirish, yangi O'zbekistonni bunyod etish, erkin va odil fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan o'zaro bog'liq va shartlangan demokratik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chuqur islohotlarni konstitutsiyaviy ta'minlashga alohida e'tibor berilgan.

Avvalo, bu "Inson qadri uchun" ustuvor tamoyilini hayotga tatbiq etishga tegishlidir. Bunda inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, fundamental huquq va erkinliklari, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Jadal o'zgarib borayotgan zamona zamonaviy talablarga javob beradigan Konstitutsiyaga ega bo'lish uchun muvofiq xatti-harakatlar va o'zgarishlarni talab qiladi.

Xulosa shuki, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o'z ifodasini topgan.

S.NORKULOV,
Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri,
N.ABDURAXMANOVA,
kafedra katta o'qituvchisi



Bilim — qaytarish va takrorlash mevasidir.

Abu Rayhon Beruniy



ALLERGOLOGLAR ANJUMANI



Kuni kecha poytaxtimizda Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida Allergolog va klinik immunologlarning "Allergik kasalliklar muhokama uchun dolzarb masalalari" mavzusida IV xalqaro ilmiy-amaliy kongressi bo'lib o'tdi.

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasi xodimlari tomonidan tashkil etilgan ushbu xalqaro tadbirda mahalliy mutaxassislar bilan birga Rossiya, Germaniya, Avstriya, Turkiya, Ukraina, Gruzija, Qozog'iston kabi qator xorijiy mamlakatlarning yetuk mutaxassis olimlari va ekspertlar ishtirok etdi.

Anjumanda qayd etilganidek, bugungi kunda dunyo aholisining 30-40 foizi allergik kasalliklardan aziyat chekmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda har uch odamdan biri allergik rinit, har o'n kishidan biri bronxial astmaga chalingan.

Bu global muammo yurtimizda allergik kasalliklarni aniqlash hamda davolash bo'yicha eng zamonaviy xorijiy ilg'or tajribalarni amaliyotga samarali tatbiq etish, sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Keyingi yillarda bu sohani rivojlantirish uchun barcha huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 11-mayda imzolangan "Allergik kasalliklarni profilaktika qilish, ularga tashxis qo'yish va davolashni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori sohadagi yangilanishlar uchun dasturulamal bo'ldi. Oradan 5-yil o'tib, tibbiyotning ushbu muhim yo'nalishini isloh qilish masalasiga yana davlat darajasida e'tibor qaratildi. 2023-yil

23-noyabr kuni mamlakatimiz rahbarining "Allergik kasalliklarning oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

O'z navbatida, 2024-yil 1-yanvardan allergik va immunologik kasalliklarga chalingan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da bo'lgan bemorlarni inflyatsion glyukokortikosteroid dori vositalari bilan bepul ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Allergik kasalliklar ko'rsatkichlari yuqori hududlarda yiliga kamida bir marta ommaviy va selektiv skrining tekshiruvlari o'tkazilib, hududlarda allergologiya va klinik immunologiya yo'nalishida yuqori texnologik tashxislash va davolash amaliyotlari turlari bosqichma-bosqich 10 turdan 20 turgacha oshirilishi ham muhim yangiliklar sirasidandir.

Kelgusidagi muammolarni hal qilish uchun allergik kasalliklarni aniqlanishini yaxshilash va ishonchli statistik ma'lumotlarni hisobga olishni ta'minlash, birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish va allergik kasalliklarning oldini olish, bronxial astma va allergik kasalliklarni erta tashxislash, ularga qarshi kurashish milliy dasturini ishlab chiqish zarurligi muhokama etildi.

Tadbirning yakuniy qismi mahorat darslari va sho'ba yig'ilishlaridan iborat bo'lib, unda qatnashchilar jahon tibbiyotidagi eng so'nggi yutuqlar hamda ilmiy ishlanmalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

G'iyosiddin ASALOV,
TTA Allergologiya, klinik
immunologiya va hamshiralik ishi
kafedrasi assistenti,
Sunnatulla TO'LABOYEV,
TTA Chirchiq filiali Ichki kasalliklar
kafedrasi assistenti



UMUMRESPUBLIKA MARAFONI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Umumrespublika marafoniga start berildi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri inson hayot sifati va farovonligini oshirishdan iborat bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish belgilab qo'yildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Ziyolilar bog'i"ni tashkil etish uchun o'tkazilgan umumrespublika marafonida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan-ta'lim va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati hamda filial jamoasi faol ishtirok etishdi.

Shuningdek, daraxt ekish marafoni bo'yicha markaziy studiyaga Toshkent tibbiyot akademiyasi mas'ullari ulangan holda tadbirda onlayn ishtirok etishdi hamda belgilangan hududga mevali va manzarali ko'chatlar ekildi.



Aql – aqldan quvvat oladi.

Jaloliddin Rumiy



MILLIY QADRIYATLAR SAYLI



Toshkent shahrining go'zal "Adiblar xiyobonida" Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan "Milliy qadriyatlar sayli" madaniy-ma'rifiy tadbirini o'tkazishdan maqsad milliy an'alarimiz, madaniyatimiz va qadriyatlarimizni yosh avlod qalbiga singdirish, ularni xalqimizning boy merosi bilan tanishtirishga qaratildi.

Tadbir ochilishida Akademiya rahbariyati va o'qituvchilari, shuningdek, talaba-yoshlar ishtirok etdi. Ochiq havoda o'tkazilgan bu tadbirda turli xil madaniy va ko'ngilochar dasturlar, milliy o'yinlar tashkil etildi.

Barchaga manzur bo'lgan tadbir davomida milliy musiqalar, raqslar va san'at asarlari taqdim etildi. Ishtirokchilar el ardog'idagi yozuvchilar asarlari va shoirlarning she'rlarini

o'qib, ularning ijodi haqida qiziqarli ma'lumotlardan boxabar bo'lishdi. Shuningdek, milliy liboslar namoyishi ham o'tkazilib, qizlar va yigitlar o'z milliy merosimizni yuksak darajada namoyish etdi. Bu jarayon bizning madaniyatimiz, an'alarimiz va tariximizni yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadbirda yoshlar orasida milliy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularni o'z Vataniga, xalqiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida ko'plab interaktiv mashg'ulotlar tashkil etildi. Biz o'zaro fikr almashib, an'alarimizning ahamiyati, ularni asrash va rivojlantirish haqida o'z fikrlarimizni bildirib o'tdik. Bunday muloqotlar milliy merosimizni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

"Milliy qadriyatlar sayli" tadbiri

nafaqat Toshkent tibbiyot akademiyasining talabalari, balki keng jamoatchilik uchun ham ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar milliy o'zlik, xalq an'analari va madaniyatini yosh avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida talabalar kelgusida bunday tadbirlarda ko'proq ishtirok etish istagini bildirdik.

Qalblarga faxr tuyg'usini baxsh etgan tadbir so'ngida har bir ishtirokchi milliy qadriyatlarimizni yanada teranroq anglagan holda, ularni kelajak avlodga yetkazish uchun o'z hissasini qo'shishga tayyor ekanini his qildi. Ushbu sayli haqiqatan ham, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va ularni rivojlantirish uchun zaruriy bir qadam bo'lib xizmat qiladi.

Adiba ABDURAYIMOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
3-bosqich talabasi

KAFEDRA XODIMLARINING KOREYAGA AMALIY TASHRIFI



TTA Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini xodimlari Koreya Respublikasining bir necha nufuzli klinikalariga tashrif buyurishdi.

Kafedra mudiri, professor D.Najmutdinova boshchiligidagi xodimlarimiz Koreyaning ROEN klinikasi Solin va Kannam filiallariga, Muqaddas Mariya va Vinsent gospitalariga amaliy tajriba almashish maqsadida borishdi.

Tashrif davomida ginekologik amaliyotida qo'llaniladigan innovatsion davolash usullari, jumladan adenomioz va miomani davolashda HIFU-terapiya, 4-avlod Da Vinci robotlashtirilgan tizim yordamida raqamlashtirilgan jarrohlik texnologiyalar bilan tanishdi. Tashrif so'ngida ROEN klinikasi direktori Sungrae Roeh tomonidan sertifikatlar berildi va kelajakda o'zaro tajriba almashish maqsadida rejalar tuzildi.



Ilmsiz gap shamoldir.

Maqol



1-dekabr — Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni

OITS – IJTIMOY XASTALIKMI?



O'ZBEKISTON YOSHLARI XALQARO E'TIROFDA...

2024-yilning mart oyida Rossiyaning Sochi shahrida "Butunjahon Yoshlar Festivali-2024" bo'lib o'tgan edi.

Ushbu nufuzli tadbirda O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining xalqaro maydondagi mavqeini yuksaltirish va o'zbek yoshlari o'rnini namoyon qilish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-davolash fakulteti 504-guruh talabasi Kamilov Jasurbek Dilshodovich koordinator sifatida ishtirok etdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 7-mayda qabul qilingan buyruqqa ko'ra, festivalni tayyorlash va o'tkazishga qo'shgan hissasi uchun esdalik medali ta'sis etilgan edi. Shu munosabat bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Nikolayevich Chernishenko janoblari Vladimir Putin nomidan Kamilov Jasurbek Dilshodovichga festivalda ko'rsatgan faol ishtiroki uchun esdalik medal va diplomni topshirdi.

Mazkur mukofot O'zbekiston yoshlarining xalqaro maydondagi faolligini namoyish etuvchi muhim voqeadir. O'zbekiston yoshlarini dunyo hamjamiyati oldida munosib tarzda taqdim etgan Jasurbek Kamilovni samimiy tabriklaymiz va ulkan yutuqlar tilaymiz!

O'zbekiston yoshlari xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlari bilan barchamizga faxr bag'ishlamoqda!

TTA Matbuot xizmati



Bugungi kunda OITS ijtimoiy kasallikmi yoki faqat venerik yoki immunologik kasalliklar toifasigagina mansubmi degan savol tib ahli ilmlari orasida katta bahslarga sabab bo'lmoqda.

Tibbiyot tadqiqotchilari olim va adib sifatida biz mazkur xastalikni sil, narkomaniya, asab-ruhiy buzilishlar kabi ijtimoiy xastalik deb hisoblaymiz. Zero, bunga bir qancha sabablar bor. "Tan xastaliklari bo'lganidek, turmush tarzining ham kasalliklari bo'ladi", degan edi tibbiyotning otasi Gippokrat. U mazkur fikrni albatta bevosita o'zini o'limga hukm etgan odamlariga nazarda tutmasdan, balki ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, toksikomaniyalik, mechkaylik, shahvatparastlik botqog'iga botib, muqarrar xastaliklarga, muhtalolklarga, o'limga yuz tutgan kimsalarni ham nazarda tutgan.

OITS sindromi, turli infeksiyon kasalliklar bo'lish ehtimolini, badanida inyeksiya izlari, turli tan jarohatlari, chandiqlar va turli spetsifik alomatlar qo'shilib kelishi mavjudligini e'tibordan qochirish kerak. Masalan, kannabis qabul qiluvchilarda ko'z qizarishi, qorachiqlar torayishi, amfetaminlar qabul qiluvchilarda qon bosimi oshishi, giperkinezlar kuzatilishi mumkin. Bemorlarning aksariyatida asta-sekinlik bilan insoniylik qiyofasi yo'qolishi, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutish, o'rinsiz tajovuzkorlik, besabab tushkunlik, yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi va eshitilishi, suitsidial fikrlar oqibatida o'zini osib qo'yish yoxud

birovni shikastlab qo'yish hollari ko'p uchraydi. Davo natijalarining statistikasi yanada qayg'uli. Gashish, mariyuana, kokain kabi nisbatan yengilroq narkomaniya turlarida batamom tuzalib ketish 22-29 foizni, geroin, LSD va ekstazida esa boryo'g'i 3-7 foizni tashkil qiladi. Demakki narkomanlarning har 5-13 tadan bittasigina sog'lom hayot quchog'iga qaytarish mumkin.

Har yili dekabr oyida 1-dekabr — Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni o'tkaziladi. Bugungi kun statistikasiga ko'ra ro'yi zaminda mazkur baloga muhtalo bo'lganlar soni 38 milliondan oshgan va bu ko'rsatkich tobora yuqorilab bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz lozimki, OITS turmush darajasi yuqori, aholining daromadi yetarli va fuqarolarining Q koeffitsiyenti baland bo'lgan Yaponiya, Koreya, Angliya, Finlandiya kabi davlatlarda nisbatan kam uchraydi, shuningdek, Birlashgan Arab Amirli, Indoneziya, Malayziya kabi zaminlarda uchrash foizi kamdir. Qaysi davlatda turmush darajasi past, aholi daromadi kam va fuqarolarning ongliik darajasi past bo'lsa o'zga hududlarda ko'p uchrashi Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayd etilgan.

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar
akademiyasi akademigi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon Xalq yozuvchisi



O'qitish ikki barobar o'qish demakdir.
J.Juber



O'ZBEK ILM-FANINING YULDUZI VOSIT VOHIDOVICH VOHIDOVNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Bilamizki, Vosit Vohidovich Vohidov mashhur jarroh olim, O'zbekiston ixtisoslashtirilgan jarrohlik maktabining asoschisi, tibbiyot fanlari doktori, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, professor 1917-yil 13-dekabrda Janubiy Qozog'istonning Turkiston o'lkasida dehqon oilasida dunyoga kelgan.

Uning tibbiyot ilmga qiziqishlari bolalik chog'laridan sezilib turardi. 1939-yilda Toshkent tibbiyot institutini a'lo baholarga yakunlaydi. Nomzodlik dissertatsiyasini "Yiringli kasalliklarda oshqozon osti bezi vazifalari" mavzusida 1950-yilda himoyalaydi. Doktorlik dissertatsiyasini esa "Preval bitishmalar va o'pka qon tomirlari qiymati" mavzusida 1962-yilda himoyalaydi. Domla Umumittifoq klinik va tarkibiy jarrohlik ilmiy-tadqiqot institutining Toshkent shahridagi bo'limini tashkil etdi va umrining oxiriga qadar rahbar bo'lib faoliyat olib bordi. O'zbekiston qahramoni 180 dan ziyod ilmiy asarlar muallifi bo'lib, ularning barchasi jarrohlik, o'pka kasalliklari, umurtqa organlari, o't pufak yo'llari, jigar, oshqozon, yurak, oyoqlar, qorin bo'shlig'i kasalliklari jarrohligi va boshqa a'zo va organlarga bag'ishlangan.

Ilmiy faoliyati davomida 15 nafar doktor va 60 nafar fan nomzodlarini tayyorlagan. Butunjahon jarrohlar uyushmasining chinakam a'zosi "O'zbekiston tibbiyot jurnali" muharriri, Pirogov nomidagi "Xirurgiya" jurnalining tahrir kengashining a'zosi. 1995-yil O'zbekistondagi ilmiy-tekshiruv instituti va shahar ko'chalaridan biri uning nomi bilan atala boshlangan. Vosit Vohidovich Vohidov haqida ko'plab yoshlar va

ustozlar o'zlarining yuksak e'tirofini bildiradi. U O'zbekistonning mashhur jarrohi va olimi bo'lib, tibbiyot sohasiga katta hissa qo'shgan. Yosh avlod va shifokorlar uni nafaqat o'z ishiga fidoyi sifatida balki ilmiy izlanishlarga bo'lgan cheksiz qiziqishi uchun ham qadrlashadi. Shogirdlari uning ilmiy maktabida ta'lim olgani uchun o'zlariga xos ilmiy uslub va analitik fikrlashni shakllantirgan.

Professor Vohidovning shogirdlari bugungi kunda ham uning yo'lini davom ettirib, ilmiy izlanishlar va yangi avlod olimlarini tarbiyalashda faol ishtirok etmoqda. Ular Vohidovning ilmiy metodlari va uning o'rgatgan bilimlarini qo'llab, O'zbekiston va xalqaro ilmiy jamoalarda yuqori e'tirofga sazovor bo'lishgan. Vosit Vohidovich Vohidov ko'plab ilmiy maqolalar va risolalar muallifi bo'lgan. Uning ishlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan va tibbiyot olamida yuqori baholangan. U nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan, balki amaliy jarrohlik faoliyatini ham muvaffaqiyatli olib borgan.

Domlarning ilmiy ishlari, jumladan, yurak, o'pka, va qon tomirlarining murakkab operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha yangiliklari, ko'p shifokorlarga ilhom manbai bo'lgan. Uning yetakchiligidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu O'zbekistonda jarrohlik yordamining yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Muhtaram ustoz O'zbekiston tibbiyot ilmiy tadqiqot institutlarida ishlagan. Uning faoliyati asosan jarrohlik operatsiyalarini tadqiq qilish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. U o'zining ilmiy izlanishlari orqali tibbiyot sohasidagi ko'plab muammolarning



yechimini topishga muvaffaq bo'lgan.

V.Vohidovning tibbiyot faniga qo'shgan eng katta hisssasi O'zbekiston tibbiyoti uchun milliy jarrohlik metodikalarini ishlab chiqish va ushbu metodikalarni amaliyotga tatbiq etish bo'lgan. U talabalarga va yosh jarrohlarga mahorat bilan saboq bergan va ko'plab yetakchi shifokorlarni tayyorlagan.

Professorning ilmiy maktabi juda ko'plab shogirdlarni yetishtirib chiqargan. Ular orasida nafaqat O'zbekistonda, balki xorijda ham ilmiy faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilar va olimlar mavjud. Shogirdlari, asosan, uning ilmiy yondashuvlaridan ilhomlanib, yangi tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalarni yaratishda davom etmoqdalar. Ular orasida fiziologiya, tibbiyot va biotexnologiya sohasida yetakchi olimlar, professorlar va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar bor.

Yoshlar uning mehnatsevarligi va fanga bag'ishlangan hayot yo'lidan o'rnak olishadi, ustozlar esa uning ilm-fanga qo'shgan hissasini qadrlashadi.

Ro'zibek TOLMASOV,
TTA Odam anatomiyasi va OXTA
kafedrasasi assistenti,
Sarvarbek SOBIROV,
Pediatriya, stomatologiya,
tibbiy pedagogika va xalq tabobati
fakulteti 2-bosqich talabasi



Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.

I. Gyote



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2024-yil noyabr)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistent – 1,0
2.	Urologiya	assistent – 0,75
3.	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi	assistent – 1,0
4.	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistent – 0,5
5.	Klinik modellashtirish	assistent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
6.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistent – 1,0
7.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	dotsent – 1,0
8.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi – 1,0
9.	Anesteziologiya va reanimatologiya	assistent – 1,0
10.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	dotsent – 1,0
11.	Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi	katta o'qituvchi – 1,0
12.	2-son travmatologiya, ortopediya HDX va neyroxirurgiya	assistent – 1,0
13.	Klinik farmakologiya	assistent – 1,0
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti		
14.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0
15.	2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar	assistent – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
16.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
17.	Gistologiya va tibbiy biologiya	katta o'qituvchi – 1,0
18.	Patologik anatomiya	assistent – 1,0
19.	Patologik anatomiya	katta o'qituvchi – 1,0
20.	Patologik anatomiya	dotsent – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
21.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent – 1,0
22.	Jamoat salomatligi va menejment	katta o'qituvchi – 1,0
23.	Farmakologiya	assistent – 1,0
24.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	dotsent – 1,0
25.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent – 1,0
26.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistent – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
27.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	dotsent – 1,0
Xalqaro fakultet		
28.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistent – 1,0
29.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent – 1,0
30.	Tibbiy va biologik kimyo	katta o'qituvchi – 1,0
31.	O'zbek va xorijiy tillar	katta o'qituvchi – 1,0
32.	O'zbek va xorijiy tillar	o'qituvchi – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida
Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFI
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi